



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDY BOSHQARMASI BOSHIG‘INING**

BUYRUG‘I

2025 -yil 4 - sentabr

206 -son

Toshkent shahri

**“O‘zmeliomashlizing” davlat unitar korxonasini
mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiyashtirish to‘g‘risida”gi va “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish tartibi to‘g‘risi”gi Nizom talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son qarorining 1-ilovasiga asosan “O‘zmeliomashlizing” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda – Korxona)ning ustav fondidagi 100 foiz davlat ulushi ommaviy savdolar orqali to‘liqligicha sotiladigan korxonalarning aksiya paketlari (ulushlari) ro‘yxatiga kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunining 35-moddasida, davlat unitar korxonasi xo‘jalik jamiyati etib o‘zgartirilayotganda uning mulki inventarizatsiyadan o‘tkazilishi va xo‘jalik jamiyati ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori mulk baholashdan o‘tkazilmagan holda, soliq organlariga taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma’lumotlariga asosan belgilanishi;

Davlat aktivlari agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2025-yil 6-martdagi 51-son buyrug‘iga asosan xatlovdan o‘tkazish komissiyasi tuzilib, Korxonaning barcha mol-mulkleri xatlovdan o‘tkazilganligi hamda mol-mulkleri balans (qoldiq) qiymati 19 052 007,31 (*o‘n to‘qqiz million ellik ikki ming yetti so‘m 31 tiyin*) so‘mni tashkil etganligi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi Toshkent shahar soliq boshqarmasining 2025-yil 7-apreldagi 22-120702-son xatiga muvofiq “O‘zmeliomashlizing” davlat unitar korxonasi tomonidan taqdim etilgan oxirgi

buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan uning ustav kapitali aktiv qiymati 5 000 000 000,0 (*besh milliard*) so'mni tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zmeliomashlizing" davlat unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zmeliomashlizing" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirilsin.

3. "O'zmeliomashlizing" MChJning ustav kapitali 5 000 000 000,0 (*besh milliard*) so'm miqdorida tasdiqlansin va 100 foiz Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi ulushi etib belgilansin.

4. "O'zmeliomashlizing" MChJ "O'zmeliomashlizing" DUKning shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi ko'rsatib o'tilsin.

5. "O'zmeliomashlizing" MChJning ustavi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. "O'zmeliomashlizing" MChJning direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Begmatov Baxodir Xolmatovich tayinlansin.

7. "O'zmeliomashlizing" MChJning direktori v.v.b. (B.X. Begmatov) 3 kun muddatda jamiyatni qayta tashkil etish bilan bog'liq barcha ishlarni amalga oshirish, shu jumladan jamiyatning ustavini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

8. Davlat aktivlarini xususiylashtirish bo'limiga Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga asosan mazkur buyruq imzolangan sanadan boshlab o'ttiz kun ichida "O'zmeliomashlizing" unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zmeliomashlizing" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirilganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon berish vazifasi yuklatilsin.

9. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis (A.Ko'charov) "O'zmeliomashlizing" MChJ ro'yxatdan o'tgandan so'ng jamiyat murojaatiga asosan 10 kunlik muddatda "O'zmeliomashlizing" unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zmeliomashlizing" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirilishi sababli mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi rasmiylashtirib berilishini;

Ushbu buyruqning nusxalarini Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "O'zmeliomashlizing" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga hamda hududiy boshqarmaning tegishli bo'limlariga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish boshqarma boshlig'i o'rinbosari J.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig'i



A. Razzoqov